Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 3 (2024) · “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish tendensi... DOI: 10.5281/zenodo.24316740

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori PQ-4863-son 15.10.2020 y
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 15 martdagi “Ichki iste’mol bozorini asosiy turdagi oziq-ovqat maxsulotlari bilan kafolatli ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi №135 qarori.
3. Mirziyoyev Sh.M. Meva-sabzavotchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish va eksportini oshirish, aholi tomorqalaridan samarali foydalanishni ta’minlash masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi. 05.11.2019. www.xabar.uz.
4. Modeli upravleniya nauchno-innovatsionnoy deyatelnostyu vuza”/ avtorы mejdunarodnoy kollektivnoy monografii: Sh.Sh. Shoxa’zamiy, D.V. Puzankov, A.V. Vaxobov, V.M. Kutuzov, A.V. Muravev, M.Yu. Shestopalov, N.G. Rьjov, I.S. Terenteva. - T.: Iqtisod-moliya, 2006. – 242 s.
5. Shoxa’zamiy Sh.Sh. Traktat o smart tsifrovoy respublike. Monografiya. -T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020. -352 s.
6. Shoxa’zamiy Sh.Sh. Puti povьisheniya konkurentosposobnosti gosudarstvennьix vьisshix uchebnьix zavedeniy.// “Oliy ta’lim taraqqiyoti istiqbollari” O‘zbekistondagi Erasmus+ milliy ofisi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tashkiliy ko‘magi asosida nashr etiladigan ilmiy-metodik jurnal, 13-son. - T.: NTM “NEO Hamkor”, 2023. -b.15-47.
7. To‘ychiyev A.G‘. Kichik biznesga innovatsiyalar transferini moliyalashtirish. Monografiya. “Fan” nashriyoti. Toshkent 2020. -224 b.
   To‘ychiyev A.G‘. Agrobiznesni tashkil etish va boshqarish. O‘quv uslubiy majmua. Andijon 2020. 235 bet.

IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANISHIDA TURIZM SOHASINI AXAMIYATI

Abduraxmonov Valijon G‘ofurovich
TDIUAF “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti, i.f.n.
Anvarov Akmaljon Akbarjon o‘g‘li
TDIUAF “Bank ishi audit” yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi

Bugungi kunda O‘zbekistonda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida keng ko‘lamli islohatlar amalga oshirilmoqda va ushbu islohotlarning asosiy maqsadi mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va o‘zbek xalqining turmush farovonligini oshirish ko‘rsatkichidir. Turizm rivojlanayotgan iqtisodiyotlar va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Turizm o‘z o‘rnida ish o‘rinlarini yaratadi, mahalliy iqtisodiyotni mustahkamlaydi, mahalliy infratuzilmani rivojlantirishga hissa qo‘shadi va tabiiy muhitni, madaniy boyliklar va an’analarni saqlashga, qashshoqlik va tengsizlikni kamaytirishga yordam beradi. Shuning bilan

Published: 17.05.2024

Cite this article: Abduraxmonov Valijon G‘ofurovich, Anvarov Akmaljon Akbarjon o‘g‘li (2024). Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishida turizm sohasini axamiyati. Emro Science and Education, 1(3). https://doi.org/10.5281/zenodo.24316740

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

birgalikda mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro bag‘rikenglikni, millatlar aro totuvlikni mustahkamlaydi va fuqorolar o‘rtasida madaniy almashinuv tuyg‘usini uyg‘otadi. Iqtisodiyotning turli sohalarida turizm tomonidan yaratilgan ish o‘rinlari soni sezilarli ravishda ortadi. Bu ish o‘rinlari nafaqat turizm sektorining bir qismi, balki qishloq xo‘jaligi, aloqa, sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalarini ham o‘z ichiga olishi mumkin. Ko‘plab sayyohlar mezbonlik qiladigan joyning madaniyati, turli urf-odatlari va o‘ziga xos tomonlari bilan tanishish uchun sayohat qilishadi. Bu mahalliy restoranlar, savdo markazlari va do‘konlar uchun juda foydali hisoblanadi. Avvalambor turizm orqali mamlakat YaIM ning o‘sishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi, mamlakatga chet el valyutalarining oqimini ko‘paytiradi va aholi turmush darajasini yaxshilaydi.

,,Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri bu milliy turizmdir, O‘zbekiston ham turizm sohasida o‘z salohiyatini yaxshilashga harakat qilmoqda va turizm sohasi rivojlangan Italiya, BAA, Misr, Turkiya kabi rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo‘shilib bormoqda. Mamlakatimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros ob’ektlari mavjud va ularning aksariyati YUNESKO ro‘yxatiga kiritilgan. Shu bilan birga, mamlakatimizning o‘ziga xos tabiati, go‘zal dam olish zonalari imkoniyatlaridan foydalangan holda yangi sayyohlik yo‘nalishlarini ochish mumkin” – deb aytib o‘tgan Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev.

Shuningdek, Prezidentimiz 2022-yil 20 dekabrda xalqimizga yo‘llagan murojaatnomasida turizm sohasini rivojlantirish masalalari bo‘yicha quyidagi mulohazalarni bildirgan. “Samarqand shahri dunyo taniydigan megapolisga, xalqaro turizm va biznes markaziga aylanmoqda. Namangan ham sanoat, tadbirkorlik, ta’lim, madaniyat sohalarida mintaqaviy markaz sifatida o‘z o‘rnini topmoqda. Shu bois, Samarqand va Namangan shaharlarini alohida ma’muriy-hududiy birliklar sifatida respublika bo‘ysunuviga o‘tkazishni taklif qilaman.

Bu poytaxtimiz Toshkent bilan bir qatorda «o‘ziga tortuvchi markazlar»ni ko‘paytirish bo‘yicha boshlagan siyosatimizda yangi amaliy qadam bo‘ladi, jon boshiga daromad, ish joylarini ko‘paytiradi, ikkala viloyatda ham tumanlarni rivojlantirishga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Endi ushbu viloyat hokimlari faqat yirik shaharlar bilan emas, tumanlarda sharoitlarni yaxshilash bo‘yicha ham ishlashi talab etiladi.

Har ikkala shaharni rivojlantirish dasturi Vazirlar Mahkamasida tasdiqlanib, ularning ijrosi uchun bevosita Bosh vazir javob beradi”. Davlatimiz rahbari ham turizm sohasini yanada rivojlantirish va bu soha orqali aholining daromadlarini oshirish, qashshoqlik darajasini kamaytirish masalalarini ilgari surmoqda.

Turizm qashshoqlikni turli yo‘llar bilan kamaytirish imkoniyatiga ega, ammo bu qashshoqlikni kamaytirishning kafolatlangan echimi emas. Turizm qashshoqlikni kamaytirishga yordam beradigan ba’zi usullar:

1. Ish bilan ta’minlash: Turizm mahalliy hamjamiyatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri (turistik gidlar, mehmonxona xodimlari va restoran ishchilari kabi) va bilvosita (turizm biznesiga tovarlar va xizmatlar etkazib beruvchilar kabi) ish o‘rinlarini yaratishi mumkin. Bu ishsizlikni kamaytirish va daromadlarni oshirishga yordam beradi, bu esa o‘z navbatida qashshoqlikni kamaytirishi mumkin.

2. Daromadlarni diversifikatsiya qilish: Ko‘pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda turizm boshqa yo‘l bilan qishloq xo‘jaligi yoki norasmiy sektor ishiga tayanishi mumkin bo‘lgan odamlar uchun muqobil daromad manbai bo‘lishi mumkin. Bu daromad manbalarini diversifikatsiya qilishga va iqtisodiy zarbalarga zaiflikni kamaytirishga yordam beradi.

3. Tadbirkorlik imkoniyatlari: Turizm mahalliy tadbirkorlarga hunarmandchilik, esdalik sovg‘alari va madaniy tajribalar kabi sayyohlarga xizmat ko‘rsatadigan biznesni boshlash imkoniyatini berishi mumkin. Bu yanada xilma-xil va barqaror mahalliy iqtisodiyotni yaratishga yordam beradi.

4. Infratuzilmani rivojlantirish: Turizm yo‘llar, aeroportlar va jamoat ob’ektlari kabi infratuzilmaga sarmoya kiritishi mumkin. Bu iqtisodiy o‘sish va rivojlanish uchun yanada qulay muhit yaratishga yordam beradi.

Biroq, turizmni rivojlantirishning mumkin bo‘lgan salbiy tomonlari ham mavjud, jumladan, atrof-muhitning buzilishi, madaniy tovarlar va ijtimoiy dislokatsiyasi shular jumlasidandir. Turizm qashshoqlikni kamaytirishning barqaror va samarali vositasi bo‘lishi uchun uni qamrab oluvchi, mas’uliyatli va adolatli tarzda rivojlantirish kerak. Bu puxta rejalashtirish, manfaatdor tomonlarning ishtiroki va ta’sirlarni kuzatish va baholashni talab qiladi.

Shuning bilan birgalikda, mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab dasturlar amalga oshirilmoqda. Bulardan biri sifatida 2022-2026 yilarga mo‘ljallangan “ Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ni olishimiz mumkin. Ushbu strategiyada avvalombor mamlakatimiz hududida turizmni rivojlantirish, xalqimizni turizm sohasiga qiziqtirish va bu orqali millatimizning o‘tmishini yanada chuqurroq anglab etishi uchun zamin hozirlamoqdamiz ya’ni:

- "O‘zbekiston bo‘ylab sayoxat qiling" dasturi doirasida maxalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda Respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga etkazish, to‘siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaxarlarida keng joriy qilish, 2026 yilgacha turizm soxasida band bo‘lgan axoli sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga etkazish, turizm va madaniy meros ob’ektlari infratuzilmasini rivojlantirish xamda 8 mingdan ortik madaniy meros ob’ektlaridan samarali foydalanish bo‘yicha davlat dasturini kabul qilish, Zomin, Forish, Baxmal tumanlari va "Aydar-Arnasoy" ko‘llar tizimida qo‘shimcha turistik zonalar va dam olish maskanlarini barpo etish, 300 million AQSh dollariga teng loyixalarni amalga oshirish, 25 ming ish o‘rinini yaratish;
- Samarqandni "Turizm darvozasi"ga aylantirish orqali kelgusi besh yilda turizm xizmatlari xajmini kamida 10 baravarga oshirish;
- Turizm soxasida 40 ming kishi bandligini ta’minlash; 2022 yilda "Abadiy shaxar" tarixiy majmuasini o‘z ichiga olgan Samarqand turizm markazini va zaruriy infratuzilmani tashkil etish;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Orol bo‘yida ekoturizmni rivojlantirish bo‘yicha aloxida dasturni amalga oshirish; Bunda, Mo‘ynokning yangi aeroporti imkoniyatlaridan keng foydalanish;
- Xorazm viloyatida turizm yangi ish o‘rinlarini yaratishda asosiy drayver soxa bo‘lishi uchun aloxida dastur qabul qilish;

- Buxoro viloyatida turizmni jadal rivojlantirish bo‘yicha aloxida dasturni amalga oshirish;
- Navoiy viloyatida ziyorat va ekoturizm saloxiyatidan samarali foydalanish;
- Toshkent shaxrida turizm infratuzilmasini yanada yaxshilash;
- Toshkent viloyatida turizm salohiyatini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha alohida dastur ishlab chiqish rejalari ilgari surilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2022 yil 20 dekabrdagi murojaatnomasi

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoniga 1-ilova 2022-2026 yillarga muljallangan yangi O‘zbekistonning tarakkiyot strategiyasi

MARKETINGDA ZAMONAVIY MOTIVATSIYA NAZARIYALARI

Boyqobilov Akbar Panji o‘g‘li
O‘zDJTSU, Menejment va sport tadbirlarini tashkil etish kafedrasi o‘qituvchisi
Baxtiyorov Umidjon Baxtiyorovich
O‘zDJTSU, Menejment va sport tadbirlarini tashkil etish kafedrasi o‘qituvchisi

Kalit so‘zlar. marketing, motivsiya, inson munosabatlari, psixologik extiyojlar

Marketingning rivojlanishi bozor va undagi faoliyat turlari to‘g‘risida yangicha nazariy oqimlarning shakllanishiga olib keldi. Aslida tovar ayiraboshlash munosabatlari amaliy ko‘rinishlari eramizdan oldingi asrlarga borib taqaladi. O‘rta Osiyo hududlarida savdo–sotiqning tarixiy rivojlanishi Buyuk Ipak yo‘li bilan bog‘liqdir.

Inson motivatsiyasi tadqiq qilish har bir marketolog uchun muhim o‘rin egallaydi. Bu muammoni o‘rganishdan maqsad iste’molchilarni tovar va xizmatlarga bo‘lgan qiziqishlarini orshirishdan iborat bo‘ladi. Shuni inobatga olgan holda iste’molchi motivatsiyasi paydo bo‘lishi va iste’molchiga yo‘naltirilgan motivatsiya nazariyalariga to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

Amerikalik olimlar F. Kotler va Keller “Marketingni boshqarish” nomli asarida iste’molchilarga yo‘naltirilgan motivatsiya nazariyalarining asosan 3 ta ko‘rinishiga to‘xtalib o‘tganlar.

1. Zigmund Freyd yondashuvi.
2. A.Maslou yondashuvi.
3. F.Gersberg yondashuvi[35] .

Golubkov Ye.P. tomonidan motivatsiya nazariyalarini o‘rganishda inson xulq-atvori va qadriyatlariga ta’sir etuvchi tashqi omillarga katta e’tibor berilgan[36] .